# Uzbekistan Airways Qo‘qon shahrida sayyor qabul o‘tkazdi

**2024 27 Sentabr**

Qo‘qon hokimiyati binosida “Uzbekistan Airways” AJ rahbariyatining Farg‘ona viloyati aholisi, jumladan tadbirkorlar, sayyohlik kompaniyalar vakillari, aviachiptalar sotish bo‘yicha agentlar hamda taqdirini aviatsiya bilan bog‘lash istagida bo‘lgan yoshlar bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.




Uzbekistan Airways vakillari ishtirokchilarni aviakompaniyaning yangiliklari va yaqin yillarga moʻljallangan rejalar bilan tanishtirib, yuzaga kelgan muammolarni hal qilish variantlarini muhokama qildi hamda barcha taklif va mulohazalarni tingladi. Savollarning koʻp qismi tadbirning oʻzidayoq hal etildi, chuqurroq oʻrganishni talab qiladigan muammolar esa qayd etilib, keyingi ishlab chiqish uchun tegishli boʻlinmalarga topshirildi.




Eslatib oʻtamiz, 2024-yil boshidan buyon Oʻzbekiston Respublikasining turli hududlarida shu kabi bir necha uchrashuvlar oʻtkazilgan. Uzbekistan Airways yoʻlovchilar va hamkorlarning takliflarini oʻrganish boʻyicha ishlarni davom ettiradi, bu esa aviakompaniya faoliyatining ochiqligi va shaffofligini taʼkidlaydi.


UZBEKISTAN
AIRWAYS
E'tiboringiz uchun rahmat!


UZBEKISTAN
AIRWAYS


UZBEKISTAN
AIRWAYS